

**TIBBIYOTDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH .**

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "BM,Biofizika va axborot texnologiyalari" kafedrası Tibbiyotda axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Melibayeva Farog'at Madaminovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Davolash ishi yo'nalishi

2723 guruh talabasi Aliyeva Inoyatxon O'tkirbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta'lim va uni tushunchasini tibbiyot talabalari bilan birgalikda tibbiyot xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tadbiq etishdan iborat. Mustaqil ta'lim tizimining tamoyillari asosiy vazifalari va amaliy ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni mustaqil o'qitishning dolzarb mavzulari ko'rib chiqilgan.

Annotation: This article aims to shed light on the deep essence of independent education and its concept for medical students and medical workers, and to implement its simple, understandable and certainly useful aspects for everyone. Work has been carried out on the principles of the independent education system, the main tasks and the formation of practical skills, and the current issues of independent education of medical workers and students have been considered.

Аннотация: Цель данной статьи – раскрыть глубинную сущность самостоятельного образования и его концепцию для студентов-медиков и медицинских работников, а также реализовать его простые, понятные и, безусловно, полезные аспекты для каждого. Проведена работа над принципами системы самостоятельного образования, основными задачами и формированием практических навыков, рассмотрены актуальные вопросы самостоятельного образования медицинских работников и студентов.

Kalit so'zlar: rivojlanish konsepsiyasi, axborot manbalari, internet resurslar, grafika, sintez, generalist.

Tibbiyotda talabalarning mustaqil ishlarini ta'minlashda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalari talabalarga osonlikcha kirish, interaktiv o'rganish, hamkorlikni va zamonaviy ko'rinishni rivojlantirish imkonini beradi. talabalar axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanib olib borish orqali o'z bilimlarini olishlari, o'rganish jarayonini samaraliroq qilishlari va muvaffaqiyatlariga erishish mumkin. Ta'lim orqali axborot texnologiyalarini ekspluatatsiyasini amalga oshirish, talabalarni zarur ko'rsatmalar bilan ta'minlashi va boshqaruvchilarni axborot texnologiyalari dan samarali yuklashni o'rganishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilangan . Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishidagi bo'lajak bakalavrlarning kelgusi kasbiy faoliyatlarida.

Tibbiyot oliygohlari talabalarining axborot texnologiyalardan foydalangan holda kasbiy tayyorgarligini oshirishga erishildi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini axborotlashtirish sharoitida takomillashtirish munosabati bilan o'qitishning yangi shakl va uslublarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari faollashtirilmoqda. Bugungi kunda faol ta'lim usullari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa o'quvchilarni o'z oldida paydo bo'lgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilish yo'llarini topishga undaydi. Davolash ishi mutaxassisligi bo'yicha generalistni tayyorlashda asosiy e'tibor faqat ma'lum bir muammoni - tibbiyot sohasida mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. Shu munosabat bilan tibbiyotda zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo'lgan professional shifokorlar uchun ijtimoiy buyurtma va

ularni oliy kasbiy ta'lim tizimida tayyorlash sifati o'rtasidagi ziddiyat kuchaymoqda. Axborot texnologiyalari yaxlit ta'lim vositasi sifatida bilimlarni o'zlashtirish usullariga, o'qitish mazmuni va fanlar o'rtasidagi munosabatlarga, o'qituvchining funksiyalariga va oliy o'quv yurti ishini tashkil etishga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida tibbiyot xodimlarini tayyorlash jarayoniga axborot texnologiyalari uchun talabalarning barcha mustaqil faoliyati o'qituvchi tomonidan kuzatib borilishi va nazorat qilinishi kerak. U maslahat, ko'rsatmalar berish, metodik usullarni tushuntirib berish, nazorat qilish shaklida namoyon bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabati (biri boshqaruvchi, ikkinchisi esa ijro etuvchi) to'g'ri tashkil etilishi muhim. Bunda ustuvor vazifa sifatida "Axborot texnologiyalari" fanini o'zlashtirilishini ilmiy asoslangan metodik boshqarish e'tirof etiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish sifati hamda samaradorligi butun pedagogik jarayonni baholashning eng muhim mezoniga aylanadi.

"Axborot texnologiyalari" fani bo'yicha mustaqil ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat natijasida talabalarda quyidagi ko'nikmalar rivojlantiriladi: – axborotni izlash (axborot manbalari bilan ishlash); – axborotni qayta ishlash; – axborotni taqdim etish; – axborotni uzatish. Axborotni izlash (axborot manbalari bilan ishlash) – talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish faoliyatining asosiy turi. Adabiyotlar, Internet resurslari bilan ishlash ko'nikmalari talaba dunyoqarashini, uning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, talabalar axborot manbalari bilan ishlashda qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ular axborot-resurs markazidagi (elektron) kataloglardan yoki Internet tarmog'idan kerakli manbani izlab topishlari, uning tarkibidan unumli foydalana olmasdan, darhol asosiy bob yoki paragraflarni o'qishga berilib ketib, mundarija, annotatsiya, kirish qismlaridagi ma'lumotlarga e'tibor bermaydilar. Axborotni qayta ishlashda talabalarda mavzuga doir axborotni tushunish, anglash, mantiqiy

ketma-ketlik asosida grafik ko‘rinishidagi bog‘lanishlarni tuzish, tahlil qilish, taqqoslash, sintez, umumlashtirish, o‘qilganlar asosida muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yondashuvini ishlab chiqish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiyot-xodimlarini-o-qitishda-innovaxborot-texnologiyalarision-texnologiyalar>
2. <https://www.xabar.uz/uz/tahlil/tibbiyotda-iot-texnologiyalar-insoniyaxborot-texnologiyalari>
3. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/822>
4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zoyDMHIAAAAJ&citation_for_view=zoyDMHIAAAAJ:ULOm3_A8WrAC
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zoyDMHIAAAAJ&citation_for_view=zoyDMHIAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
6. Madaminovna, M. F. A. (2025). ORGANIZING THE INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS EFFECTIVELY THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 3(4), 5-10.
7. Melibayeva, F. A., & Turg‘unboyev, D. (2025). TIBBIYOT YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI. Modern Science and Research, 4(4), 287-295.
8. Melibayeva, F. A. (2024). OLIY TA‘LIMDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH. Modern Science and Research, 3(12), 872-875.